

Tarixchi olimlar bilan uchrashuv

O'zbekiston davlat san'at muzeyida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarixchi-arxeolog olim Ahmadali Asqarov bilan uchrashuv tashkil etildi. Unda olimning shogirdlari, professor-o'qituvchilar, yosh izlanuvchilar, talabalar ishtirok etdi.

Yurtimizda ilm-fan, madaniyat rivoji yo'lida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yurtimiz tarixini o'rganish, xususan, arxeologik izlanishlar olib borish natijasida ajdodlarimizdan qolgan boy moddiy-madaniy merosimizni tadqiq etish ishlari jadallashmoqda. Ilm-fan yutuqlarining samarali tashkil etilishida olimlarimizning hissasi beqiyos.

A.Asqarov yurtimizda nafaqat arxeologiya yo'nalishida, balki tarix fanining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olimlardan biridir. Akademik mamlakatimiz fani va madaniyati taraqqiyoti yo'lidagi samarali mehnati sabab O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan. Tarixchi uch jildli "O'zbekiston tarixi" kitobi, "O'rta Osiyo tarixiy antropologiyasi", "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi", "Janubiy O'zbekistonda bronza davri" kabi ma'lumotlarga boy monografiyalar, 450 dan ortiq risolalar va ilmiy maqolalar muallifidir. Olimning asarlari rus, nemis, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Uchrashuvda O'zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishi, muhim arxeologik manzillar, arxeologiya fanini o'rganishning ahamiyati, keyingi yillarda olib borilayotgan arxeologik izlanishlar kabi mavzularda so'z bordi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga tarixchi-arxeolog olimdan to'liq javob oldi.

<http://uza.uz/oz/society/tarikhchi-olim-bilan-uchrashuv-07-09-2018>